

O'ZBEKISTONDA BOLALAR SPORTINI RIVOJLANTIRISHGA OID DAVLAT SIYOSATI

Turdimuratov Yangiboy Allamuratovich

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti
Falsafa doktori (PhD), dotsent
E-mail: new_rich80@mail.ru

Berdimurodov Zafar Ibroim o'g'li

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti
2-bosqich magistranti

ГОСУДАРСТВЕННАЯ ПОЛИТИКА ПО РАЗВИТИЮ ДЕТСКОГО СПОРТА В УЗБЕКИСТАНЕ

Турдимуратов Янгибой Алламуратович

Узбекский государственный университет физической культуры и спорта
Доктор философии (PhD), доцент
E-mail: new_rich80@mail.ru

Бердимуратов Зафар Ибраим угли

Узбекский государственный университет физической культуры и спорта
Магистрант 2-го курса

STATE POLICY ON THE DEVELOPMENT OF CHILDREN'S SPORT IN UZBEKISTAN

Turdimuratov Yangiboy Allamuratovich

Uzbek State University of Physical Culture and Sport
Doctor of Philosophy (PhD), assistant professor
E-mail: new_rich80@mail.ru

Berdimurodov Zafar Ibroim o'g'li

Uzbek State University of Physical Culture and Sport
Master student of the 2nd course

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasida Bolalar sportini rivojlantirishning huquqiy asoslari, respublikada jismoniy tarbiya va sport sohasidagi islohotlar, ularning ahamiyati va natijalari haqida malumot berilgan.

Kalit so'zlar: jismoniy tarbiya, sport, bolalar sporti, qonun, qaror, farmon, Bolalar sportini rivojlantirish jamgarmasi, "Besh tashabbus olimpiadasi", "Bolalar sport o'yinlari", bolalar-o'smirlar sport maktablari.

АННОТАЦИЯ

В данной статье представлена информация о правовых основах развития детского спорта в Республике Узбекистан за годы независимости, реформах в сфере физической культуры и спорта в республике, их значении и результатах.

Ключевые слова: физическая культура, спорт, детский спорт, закон, постановление, указ, Фонд развития детского спорта, «Спартакиада пяти инициатив», «Детские спортивные игры», детско-юношеские спортивные школы.

ABSTRACT

This article provides information on the legal foundations for the development of children's sports in the Republic of Uzbekistan over the years of independence, reforms in the field of physical culture and sports in the republic, their significance and results.

Key words: physical culture, sports, children's sports, law, resolution, decree, Children's Sports Development Fund, "Spartakiad of Five Initiatives", "Children's Sports Games", children's and youth sports schools.

Sport – bu sog'lom ijtimoiy-siyosiy muhitni tadbiq etishning eng yaxshi vositasidir. Ayniqsa yoshlar orasida bu muhim ahamiyat kasb etadi. Bugun O'zbekistonda sport ta'lim va tarbiyaning ajralmas qismiga aylangan. O'zbekiston aholisi yosh bo'lgan davlat bo'lib, respublika hududida istiqomat qiluvchilarning qariyb 40 qoizidan ko'prog'ini 18 yoshgacha bo'lgan yoshlar tashkil etadi. Ularning har tomonlama rivojlanib, ham ma'nau, ham jismonan kamolotga erishishlari muhim ahamiyatga egadir. Shuning uchun bolalar sportiga e'tibor va yoshlar orasida sog'lom turmush tarzini ommalashtrish davlat siyosatining eng asosiy yo'nalishlaridan biriga aylangan. Bizning qadimiy tariximiz, boy madaniyatimiz taraqqiyotida har tomonlama faxrlanishga arziydigan buyuk allomalar, noyob obidalar, engilmas sarkardalar, pahlavon va bahodirlar juda ko'p bo'lgan. Bugun yoshlarimiz ana shunday ulug' ajdodlarimizning vorislari sifatida barcha jabhalarda, jumladan, sportda ham dunyo

miqyosida eng yuksak shohsupalarga ko'tarilib, xalqimizning g'urur va iftixorini oshirmoqda.

Respublikamizda jismoniy tarbiya va sportning ommalashuvini yanada yuqori pog'onaga ko'tarish, jismoniy madaniyat harakatini, bolalar sportini rivojlantirish, xalq milliy o'yinlarini qayta tiklash, sog'lom turmush tarzini shakllantirish, zamonaviy sport turlari bo'yicha iqtidorli sportchilarni tayyorlash va ularning sport mahoratlarini oshirish maqsadida qabul qilingan President farmon va qarorlari mamlakatimizda ushbu sohani ommalashtirish va rivojlantirishda muhim ahamiyatga egadri. Mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab sport, xususan, bolalar sportini rivojlantirish uchun o'ziga xos islohotlarni amalga oshirish borasida muayyan ko'rinishdagi huquqiy baza shakllantirildi. Jumladan, "O'zbekiston Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, "Bolalar va o'smirlar sport maktablarini kadrlar bilan ta'minlashni yaxshilash to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'lim vazirlining buyrug'i, "Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi byudjetini va bolalar sport ob'yektlari qurilishining manzilli dasturini tasdiqlash to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, "O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligi huzuridagi Jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish jamg'armasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida" Vazirlar Mahkamasining qarori, "Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori kabi rasmiy me'yoriy hujjatlarning qabul qilinishi respublikamiz barcha hududlardagi mahallalar va ko'chalarda yoshlarning jismoniy tarbiya va sportga keng jalb qilinishiga, ushbu sohaning ommalashuvi va rivojlanishiga asos hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002-yil 24-oktyabrdagi "O'zbekiston Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasini tuzish to'g'risida"gi va 2004-yil 29-avgustdagi "O'zbekiston Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari soha rivojida muhim dasturilamal bo'ldi. 2002-yil 31-oktyabrda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qarori qabul qilinib, Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi muassislarining ro'yxati va Homiylik kengashi tarkibi tuzildi. Ushbu soha faoliyatidagi bir qator o'zgarishlar tufayli yuqoridagi me'yoriy-huquqiy hujjatlar tegishli Prezident farmoni va Vazirlar Mahkamasi qaroriga asosan o'z kuchini yo'qotgan.

2003-2015-yillarda respublikada Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi hisobidan 1922 sport inshooti, 283 bolalar musiqa va san'at maktabi, 96 suzish havzasi qurib foydalanishga topshirilgan. 2015-yilda 221 ta sport inshootida qurilish, kapital

rekonstruktsiya va ta'mirlash ishlari bajarilgan. Bitta sport inshootidan o'rtacha kunlik foydalanish vaqti 9,8 soatni tashkil etmoqda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 5-iyuldagi qaroriga asosan, Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi negizida O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligi huzurida Jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish jamg'armasi tashkil etildi. 2019-yil 26-avgustda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jismoniy tarbiya va sport ob'yektlarini qurish, rekonstruktsiya qilish, kapital ta'mirlash va jihozlash ishlarini moliyalashtirish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoniga asosan ushbu jamg'arma faoliyati tugatildi va uning funksiyasi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga yuklatiladi.

Mamlakatimizda 2 milliondan ziyod bola sportning 30 turi bilan muntazam ravishda shug'ullanmoqda. 2014-yilda sport bilan shug'ullanuvchi 6-15 yoshli bolalar qamrovi 2013-yil bilan taqqoslaganda 43,7 foizdan 55,8 foizga, shu jumladan, qizlar soni 39 foizdan 45,7 foizga ortgan. Agar 2005-yilda yurtimizda 6 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan bolalar va o'smirlarning 30 foizi, jumladan, qishloq joylarda 29 foizi sport bilan shug'ullangan bo'lsa, 2015-yilda bu raqamlar tegishli ravishda 57,2 foizni va 56 foizni tashkil etgan. Bunday misollar mamlakatimizda bu borada katta o'sish va o'zgarishga erishilayotganligidan dalolat beradi.

O'qil-qizlarning sportga qiziqishida joylarda o'tkaziladigan sport musobaqalarining ahamiyati beqiyos. Jumladan, ta'lim tizimida joriy qilingan uch bosqichli uzluksiz sport o'yinlari – "Umid nihollari", "Barkamol avlod" va "Universiada" musobaqalari, shuningdek "Besh tashabbus olimpiadasi" musobaqalari ana shu maqsadga xizmat qilmoqda. Bu kabi keng ko'lamli ishlar natijasida, bugungi kunda respublikamizda o'g'il-qizlarning 92 foizi bo'y va og'irlik jihatidan Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti standartlariga to'g'ri keladi. Sport mashg'ulotlariga o'quvchilarni ommaviy ravishda, uzluksiz jalb qilishni tashkil etish maqsadida, 2003-yilda 3-iyunda "O'quvchi va talaba yoshlarni sportga jalb qilishga qaratilgan uzluksiz sport musobaqalari tizimini tashkil etish to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori qabul qilindi. Mazkur qaror asosida mamlakatda umumta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'quvchilari hamda oliy ta'lim muassasalari talabalarining "Umid nihollari", "Barkamol avlod", "Universiada" musobaqalarining hududlarda respublika final bosqichlarini o'tkazish rejasi belgilandi. Uch bosqichli sport musobaqasida yoshlar 28 sport turi bo'yicha bellashadi.

Bolalar sportini rivojlantirishga qaratilgan maqsadli ishlar natijasida o'g'il-qizlarimiz muntazam shug'ullanadigan sport turlarining soni ham keskin ravishda oshib bormoqda. Masalan, 6-15 yoshdagi bolalar 2005-yilda 43 turdagi mashg'ulotlarga qatnagan bo'lsa, 2015-yilda ular 59 sport turi bilan shug'ullangani bu

sohada yutuqlarimiz nafaqat son jihatdan, balki sifat jihatdan ham o'sib borayotganini ko'rsatadi. Ayniqsa, bolalarning biz uchun mutlaqo yangi bo'lgan badiiy gimnastika, suzish, sinxron suzish, tennis, taekvondo, dzyudo, karate, vaterpol, eshkak eshish kabi sport turlari bo'yicha muntazam shug'ullanayotgani, qit'a va jahon miqyosidagi nufuzli musobaqalarda ishtirok etib, yuqori shohsupalarga ko'tarilayotgani quvonarli holdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasini tuzish to'g'risida"gi Farmonida belgilangan vazifalarni amalga oshirish, yoshlarda sportga bo'lgan havas va intilishni, jamiyatimizda sog'lom turmush tarzi tamoyillarini yanada kuchaytirish, mamlakatimizda o'quvchi va talabalarni sport mashg'ulotlariga uzluksiz jalb qilishga qaratilgan sport musobaqalari tizimini Kadrlar tayyorlash milliy modeli va dasturiga muvofiq tashkil etish hamda ushbu tizimning samarali ishlashini ta'minlash maqsadida yana bir qator muhim hujjatlar qabul qilindi. Jumladan, 2018-yil 25-oktyabrda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'quvchi va talaba yoshlar o'rtasida o'tkaziladigan respublika sport musobaqalari tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi qarori qabul qilindi va unga ko'ra, "Umid nihollari", "Barkamol avlod" va "Universiada" sport musobaqalarini o'tkazish sxemasi, ushbu sport musobaqalarida o'tkaziladigan sport turlari ro'yxati, sport musobaqalarining sport turlari bo'yicha respublika final bosqichini hududlarda o'tkazish rejasi hamda sport musobaqalarini final bosqichini o'tkazish bo'yicha tashkiliy qo'mitalar tarkiblari tasdiqlandi. Shu bilan birga sport musobaqalari g'oliblarini munosib taqdirlash tartibi ham belgilandi. Ushbu qarorga asosan, Vazirlar Mahkamasining 2003-yildagi "O'quvchi va talaba yoshlarni sportga jalb qilishga qaratilgan uzluksiz sport musobaqalari tizimini tashkil etish to'g'risida"gi qarori o'z kuchini yo'qotdi.

Bolalar sportini yanada targ'ib qilish, bolalar uchun ishlab chiqarilayotgan sport tovarlari turlarini ko'paytirish hamda hududlar, maktabgacha bolalar muassasalari, maktablar, akademik litseylar, kollejlari, oliy o'quv yurtlari va «Mahalla» hududiy jamg'armalarining sport tovarlariga ehtiyojini o'rganish maqsadida 2003-yil 18-iyulda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Bolalar sportini targ'ib qilish va bolalar uchun sport tovarlarini ishlab chiqarish turlarini kengaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Mazkur qaror O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 22-fevraldagi qaroriga asosan o'z kuchini yo'qotgan.

Bolalar sporti ob'yektlaridan foydalanish samaradorligini yanada oshirish, ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, bolalarni jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishga jalb etishni kengaytirish, sog'lom va barkamol avlodni voyaga yetkazish maqsadida 2010-yil 5-mayda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining

“Bolalar sporti ob’yektlaridan foydalanish samaradorligini oshirish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. 2015-yil 23-noyabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy mahorat sport maktablarini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori mamlakatimizda Bolalar sportini rivojlantirishga qaratilgan yana bir muhim huquqiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sog‘lom bola yili” Davlat dasturi to‘g‘risida” 2014-yil 19-fevraldagi PQ-2133-son qarorining 80-bandiga muvofiq, shuningdek xalq ta’limi tizimidagi o‘quvchi yoshlar o‘rtasida jismoniy tarbiya va sportni yanada ommalashtirish, rivojlantirish hamda yuksak mahoratli sportchilar zaxirasini tayyorlash maqsadida 2014-yil 1-avgustda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston “Yoshlik” jismoniy tarbiya va sport jamiyati faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarori qabul qilinib, o‘quvchi yoshlar o‘rtasida jismoniy tarbiya va sportni keng targ‘ib qilish, bolalarning muntazam ravishda jismoniy tarbiya bilan shug‘ullanishlari uchun shart-sharoitlar yaratish, sport musobaqalarining respublika bosqichlari g‘oliblari va sovrindorlari bo‘lgan o‘quvchilardan O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligining sport turlari bo‘yicha terma va zaxira jamoalarini shakllantirish hamda sport turlari bo‘yicha federatsiyalar bilan hamkorlikda iqtidorli o‘quvchi sportchilarning xalqaro sport musobaqalarida qatnashishini ta’minlash ushbu jamiyatning qo‘shimcha vazifalari sifatida belgilandi. Shuningdek, ushbu qaror asosida O‘zbekiston “Yoshlik” jismoniy tarbiya va sport jamiyati faoliyatini tubdan takomillashtirish hamda bolalarni sport bilan shug‘ullanishga jalb etishga qaratilgan chora-tadbirlar kompleksi ham tasdiqlandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sog‘lom bola yili” Davlat dasturi to‘g‘risida” 2014-yil 19-fevraldagi PQ-2133-son qarorini bajarish yuzasidan, umumta’lim maktablarida o‘quvchilarning jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratish maqsadida 2014-yil 3-dekabrda Vazirlar Mahkamasining “2015-2020-yillarda umumta’lim maktablarini zamonaviy sport zallari bilan ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. Ushbu qarorga ko‘ra, 2015-2020-yillarda umumta’lim maktablarini zamonaviy sport zallari bilan ta’minlash chora-tadbirlari dasturi tasdiqlandi.

Bolalar sporti ob’yektlarini barpo etish, joylashtirish va ularning faoliyatida yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarni bartaraf etish, bolalar-o‘smirlar sport maktablaridan foydalanish darajasini va ular faoliyati samaradorligini yanada oshirishga doir takliflarni ishlab chiqish, ularni boshqarishni tashkil etishni takomillashtirish, istiqbolli rivojlantirish va moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, bolalarni sport bilan muntazam ravishda shug‘ullanishga jalb etishni kengaytirish maqsadida 2015-yil 11-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Bolalar-o‘smirlar sport

maktablari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Bolalar-o'smirlar sport maktablari samarali faoliyat ko'rsatishi, ulardan o'quvchilarning to'liq foydalanishini ta'minlash hamda ular moddiy-texnik baza va trener-o'qituvchilar tarkibi bilan ta'minlanganligi, o'quv-mashq jarayonining sifati ustidan nazorat qilinishi, sport mashg'ulotlari muntazam o'tkazilishi va o'quvchilar qatnovi darajasi monitoringini tizimli asosda olib borish uchun shaxsiy mas'uliyat O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligiga yuklandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 3-iyunda qabul qilingan "Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori sohadagi yana bir muhim hujjat bo'ldi. Ushbu qaror asosida O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish Dasturi qabul qilindi. Dasturda ta'lim muassasalari o'quvchi va talabalari, aholining keng qatlamlari o'rtasida sog'lomlashtirish, jismoniy tarbiya, ommaviy sport ishlarini tashkil etish, kompleks sport musobaqalarini o'tkazish, yoshlar orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olish va ularni maqsadli tayyorlash kabi yo'nalishlarda kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish nazarda tutilgan. Bundan tashqari ushbu dasturga ko'ra, o'quvchi va talaba-yoshlar o'rtasida o'tkaziladigan uch bosqichli «Umid nihollari», «Barkamol avlod», «Universiada» sport o'yinlari dasturlarini sportning ommaviy turlari hisobiga kengaytirish, nufuzini oshirish va musobaqa g'oliblarini munosib rag'batlantirish tizimini tubdan takomillashtirish kabi qator tizimli ishlarni amalga oshirish ham belgilangan. Qarorda o'z yechimini topgan muhim masalalardan yana biri – hududiy ko'p tarmoqli tibbiyot markazlarida sport tibbiyoti bo'limlarining tashkil etilishi va ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash belgilab qo'yilganidir.

O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirining 2018-yil 9-iyuldagi buyrug'iga asosan, umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik litsey va professional ta'lim muassasalari o'quvchilaridan iborat sport jamoalari o'rtasida (sport turlari bo'yicha) ushbu muassasalar, tuman(shahar)lar, viloyatlar va respublika darajasida ommaviy sport tadbirlarini o'tkazish tartibi to'g'risidagi Nizom tasdiqlandi.

2020-yil 24-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni qabul qilindi. Ushbu farmon asosida O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni 2025-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi tasdiqlandi. Farmonga ko'ra, joylarda yoshlar orasidan iqtidorli sportchilarni tanlab olish (seleksiya)ning samarali va shaffof to'rt bosqichli – tashkilot-tuman (shahar)-hudud-respublika tizimini ishlab chiqish va joriy etish va O'zbekiston Respublikasi Turizm va sport vazirligi tizimidagi sport maktablari o'quvchi-sportchilari o'rtasida "Bolalar sport o'yinlari"ni o'tkazish orqali iqtidorli sportchilarni

aniqlash va yoshlar terma jamoalariga zaxira yaratish hamda oliy ta'lim muassasalari talabalari o'rtasida "Talabalar sport o'yinlari"ni tashkil etish natijasida talabalarni sport bilan muntazam shug'ullanishga jalb etish belgilandi.

Mahallalarda yoshlar o'rtasida ommaviy sport musobaqalarini tizimli tashkil etish orqali sog'lom turmush tarzini keng targ'ib qilish, ularni ommaviy sportga jalb etishni yangi bosqichga olib chiqish hamda 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi 67-maqsadida belgilangan vazifalarning ijrosini ta'minlash uchun 2022-yil 11-aprelda O'zbekiston Respublikasi Rrezidentining "Mahallalarda yoshlarni ommaviy sportga jalb qilishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Ushbu qaror asosida mahallalarda yoshlar o'rtasida ommaviy sportni yanada rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar Dasturi tasdiqlandi. Qarorga ko'ra, 2022-yildan boshlab har yili an'anaviy tarzda 30-iyun – O'zbekiston Respublikasi yoshlari kuni hamda dekabr oyida o'tkaziladigan "Yoshlar forumi" doirasida sportning futbol, minifutbol, voleybol, yengil atletika, shaxmat, shashka, stol tennisi, stritbol, vorkaut turlari bo'yicha besh bosqichli ommaviy sport musobaqalarini o'tkazish tizimi joriy etiladi. 2022-yil yakuniga qadar 6 million nafar yoshlarning sport tadbirlari bilan qamrab olinishini ta'minlash belgilab qo'yildi. Shuningdek, "Besh tashabbus olimpiadasi" doirasidagi sport musobaqalarini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha ishlar muvofiqlashtiriladi.

Sog'lom avlodni voyaga yetkazishda jismoniy tarbiya va sportning rolini oshirish, bu boradagi mavjud moddiy-texnik baza va kadrlar salohiyatini jahon standartlari asosida yanada mustahkamlash, eng muhimi, sportga mehr har bir bola, har qaysi oila hayotiga chuqur kirib borishiga erishish eng muhim vazifa bo'lib qolaveradi. Shu bois respublikamizda Bolalar sportini rivojlantirishga qaratilgan me'yoriy huquqiy hujjatlar va dasturlar doirasida belgilangan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi jismoniy tarbiya va ommaviy sportning jamiyatimiz hayotidagi rolini yanada kuchaytirish, aholining barcha qatlami, ayniqsa, yoshlar orasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish, ularga o'z qobiliyat va iste'dodlarini ro'yobga chiqarishlari uchun barcha shart-sharoitni yaratish orqali ularni ommaviy tarzda sportga, sog'lom turmush tarziga oshno qilish, qolaversa, nufuzli xalqaro maydonlarda Vatanimiz bayrog'ini baland ko'tarib kelayotgan mashhur sportchilarimiz saflarini tobora kengaytirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. www.president.uz – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti.
2. www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi Hukumat portali.
3. www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari bazasi.

4. www.minsport.uz – O‘zbekiston Respublikasi Sportni rivojlantirish vazirligi veb-sayti.
5. www.olympic.uz – O‘zbekiston Milliy olimpia qo‘mitasi veb-sayti.
6. www.xs.uz – “Xalq so‘zi” gazetasi veb-sayti.
7. Турдимуратов, Я. А. (2022). КОЧЕВОЕ ХОЗЯЙСТВО УЗБЕКОВ ЮЖНОГО УЗБЕКИСТАНА В КОНЦЕ XIX–НАЧАЛО XX ВВ. *Educational Research in Universal Sciences*, 1(7), 546-557.
8. Маманов, Ж. А., & Розиков, Ж. М. (2021). Миллий менталитетнинг ёшлар маданиятига таъсири. *Academic research in educational sciences*, 2(Special Issue 1), 170-178.
9. Маманов, Ж. А. (2018). Ёшлар маънавий маданиятига таъдид ёки мессонерликнинг салбий оқибатлари. *ЎЗМУ хабарномаси*, 169.
10. Маманов, Ж. А. (2018). МАЪНАВИЙ ТАРБИЯ ТАКОМИЛИДА СПОРТ ВА АХЛОКИЙ МАДАНИЯТНИ УЙФУНЛАШТИРИШ МАСАЛАСИ. *Fan-Sportga*, (3), 74-78.
11. Маманов, Ж. А., & Хушвақтов, З. Р. (2022). МИЛЛИЙ МЕНТАЛИТЕТ (МЕХАНИЗМИ) ВОСИТАСИДА ЁШЛАР МАЪНАВИЙ МАДАНИЯТИНИ ЮКСАЛТИРИШНИНГ МИЛЛИЙ ВА УМУМИНСОНИЙ ТАМОЙИЛЛАРИ. *Educational Research in Universal Sciences*, 1(6), 9-13.
12. Маманов, Ж. А. (2020). Young people are increasing a spiritual culture place of national mentality. *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*, 3203.
13. Маманов, Ж., & Турғунов, Т. (2022). МИЛЛИЙ МЕНТАЛИТЕТ АСОСИДА ЁШЛАР МАДАНИЯТИНИ ЮКСАЛТИРИШНИНГ МИЛЛИЙ ВА УМУМИНСОНИЙ ТАМОЙИЛЛАРИ. *Educational Research in Universal Sciences*, 1(7), 520-528.
14. Жумаев У.Х. (2022). ТУРКИСТОНДА МОЛИЯ-КРЕДИТ МУАССАСАЛАРИНИНГ ПАХТАЧИЛИК СОҲАСИДАГИ ФАОЛИЯТИ ТАРИХИДАН. *Educational Research in Universal Sciences*, 1(6), 4–8.
15. Жумаев, М. Х. (2022). БУХОРО АМИРЛИГИДА ҲУНАРМАНДЧИЛИК ВА ТЎҚИМАЧИЛИКНИ РИВОЖЛАНИШ ТАРИХИДАН. *Educational Research in Universal Sciences*, 1(6), 14-18.
16. Турдимуратов, Я. А. (2022). КОЧЕВОЕ ХОЗЯЙСТВО УЗБЕКОВ ЮЖНОГО УЗБЕКИСТАНА В КОНЦЕ XIX–НАЧАЛО XX ВВ. *Educational Research in Universal Sciences*, 1(7), 546-557.